

O'zbekiston delegatsiyasi Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferentsiya ishida ishtirok etmoqda



O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi 2015 yilning 30 noyabrida Parij shahrida ish boshlagan BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konventsiyasining (IO'DK) 21-konferentsiyasida ishtirok etmoqda. Tadbir Frantsiya hukumati va IO'DK Kotibiyati tomonidan o'tkazilmoqda va uning ishida BMTga a'zo mamlakatlarning rasmiy delegatsiyalari, xalqaro birlashmalar, davlat va nohukumat tashkilotlar vakillari ishtirok etmoqda.

O'zbekiston 1993 yildan buyon 1992 yil Rio-de-Janeyroda qabul qilingan IO'DK ishtirokchisi hisoblanadi va doiraviy konventsiyaning Kioto protokoliga 1999 yilda qo'shilgan.

[Tashqi ishlar vazirligi matbuot xizmati](#)